

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI




SHARQ TILSHUNOSLIGI TARIXI
(HIND)
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000	– San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi:	230000	– Tillar
Mutaxassislik:	70230101	– Lingvistika (sharq tillari bo‘yicha)

Toshkent -2025

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  X.V. Mirzaxmedova

Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi boshlig'i:  N.B. Xodjaeva

ARM boshlig'i

 M. Yuldasheva

Fan/modul kodi ShTT1204	O'quv yili 2025/2026	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	SHARQ TILSHUNOSLIGI TARIXI (HIND)	48	72	120
2.	<p align="center">I. Fanning mazmuni</p> <p><i>Fanni o'qitishdan maqsad</i> – Mazkur fan bo'yicha ta'lim jarayonining asosiy maqsadi — talabalarda hindiy tilining tarixi hamda uning ichki tizimiga xos fonetik, morfologik va sintaktik tarkibiy qismlarini tadqiq etishda yuzaga keladigan nazariy muammolarni tahlil qilish va umumlashirish orqali yo'nalish profiliga mos ilmiy bilim, amaliy ko'nikma hamda lingvistik malakalarni shakllantirishdan iboratdir.</p> <p><i>Fanning vazifasi</i> - Fan quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Hindiy tilini ilmiy-lingvistik nuqtai nazardan o'rganish metodologiyasini talabalarga singdirish; - Tilshunoslikning fonetika, morfologiya va sintaksis bo'limlariga oid nazariy tushunchalar va lingvistik birliklarni chuqur anglashni ta'minlash; - Hindiy tiliga oid matnlar asosida fonetik, morfologik va sintaktik hodisalarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish; <p>Xorij tajribasiga muvofiqi:</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Leiden University (QS 126, ARWU 111 THE 77) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://www.universiteitleiden.nl/en/research/aboutourresearch/quality-and-integrity/rankings</p> <p align="center">II. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p align="center">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p align="center">I. Hindiy tili tarixi: fan sifatida o'rganish doirasi va zamonaviy ahamiyati</p> <p>Hindiy tilining tarixiy evolyutsiyasini o'rganishning ilmiy asoslari,</p>			

metodologiyasi va zamonaviy kontekstdagi ahamiyati. Tilning tarixiy davrlanishi va turli olimlarning bu boradagi nazariyalari tahlilqilinadi, fanning asosiy vazifalari aniqlandi.

2. Hindiy tilining hind-oriy tillari oilasidagi o'rni va zamonaviy qardosh tillar bilan aloqasi

Hindiy tilining hind-oriy tillari oilasidagi genealogik mavqei va uning panjobiy, bengal, marathi kabi zamonaviy qardosh tillar bilan o'zaro munosabati. Tillarning umumiy kelib chiqishi va farqli rivojlanish yo'llari tahlil qilinadi.

3. Qadimgi hind-oriy tillarining hindiy tiliga bo'lgan ta'siri: Sanskrit va veda merosi

Zamonaviy hindiy tilining leksikasi, grammatikasi va fonologiyasiga qadimgi sanskrit va veda tillarining qanday ta'sir ko'rsatganligi o'rganiladi. Tarixiy lingvistik merosning zamonaviy tilga aks etishi tahlil qilinadi.

4. O'rta hind-oriy tillari davri: prakrit va pali tillarining hindiy tili shakllanishidagi o'rni

O'rta hind-oriy tillari (prakrit va pali)ning fonetik, morfologik va sintaktik jihatlarini, ularning keyingi yangi hind-oriy tillari, xususan hindiy tilining shakllanishiga bo'lgan hal qiluvchi ta'siri tahlilqilinadi.

5. Apabhhransh tillaridan yangi hind-oriy tillariga o'tish: tilning evolyutsiyasi

Apabhhransh tillarining yangi hind-oriy tillarining shakllanishidagi roliga e'tibor qaratiladi. Ushbu o'tish davridagi lingvistik o'zgarishlar va innovatsiyalar tahlil qilinadi.

6. Yangi hind-oriy tillarining shakllanishi va hindiy tilining ilk adabiy yodgorliklari

Yangi hind-oriy tillarining paydo bo'lishi va rivojlanishi, hindiy tilidagi dastlabki adabiy asarlar (masalan, Amir Xusrav she'rlari) va ularning lingvistik xususiyatlari o'rganiladi.

7. Hindiy shevalarining xilma-xilligi: khari boli, braj va dakhinining tarixiy roli

Hindiy tilining turli tarixiy shevalari (khari boli, braj, dakhini)ning lingvistik xususiyatlari va adabiy merosga qo'shgan hissasi, xususan, khari bolining zamonaviy standart hindiy uchun asos bo'lib xizmat qilishidagi roli tahlil qilinadi.

8. Hindiy va urdu tillarining ajralish tarixi: lingvistik birlik va ijtimoiy-siyosiy bo'linish

Hindiy va urdu tillarining umumiy lingvistik ildizlari va ularning arab-fors yozuvi va sanskritlashtirish ta'sirida diniy-ma'daniy omillar tufayli ajralib chiqish jarayoni tahlil qilinadi.

9. Dehli sultonligi va Mo'g'ullar davrida hindiy tilining rivojlanishi

Dehli sultonligi va Mo'g'ullar imperiyasi davrida hindiy tilining ma'muriy, madaniy va adabiy sohalaridagi o'rni, fors tilining ta'siri va xalqaro til sifatida o'sishi o'rganiladi.

10. Hindiy tilidagi ergativlik: qadimgi sintaktik merosning zamonaviy ko'rinishi

Hindiy tilidagi ergativlik konstruksiyalarining mavjudligi va ularning qadimgi hind-ory tillaridagi ildizlari tahlilqilinadi. Bu sintaktik xususiyatning zamonaviy nutqda qo'llanilishi ko'rib chiqiladi.

11. Zamonaviy standart hindiy tilining shakllanishi: milliy til sifatida ko'rinishi

Mustamlakachilik davridan mustaqillikka qadar hindiy tilining milliy til sifatida qanday qilib standartlashtirilgani, grammatikasi va lug'atining kodlanishi va barcha hindistonliklar uchun muloqot vositasi sifatida targ'ib qilinishi o'rganiladi.

12. Zamonaviy Hindistonda hindiy tili: davlat tili, muloqot vositasi va madaniy identitet

Hindiy tilining zamonaviy Hindistondagi ko'p qirrali roli: rasmiy ishlar va ta'limdagi o'rni, mamlakat bo'ylab turli guruhlar o'rtasida lingua franca sifatida ishlatilishi, va uning hind madaniy identiteti bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.

II.1. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Sharq tilshunosligi tarixi (hind) fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Hindiy-urdu tilining raqamli evolyutsiyasi: internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri
2. Hinglish: globalizatsiya sharoitida hindiy va ingliz tillarining o'zaro ta'siri
3. Zamonaviy Hindistonda muloqot vositasi sifatida hindiy tilining o'rni
4. Hindiy tilining sun'iy intellekt va mashina tarjimasida qo'llanilishi
5. Hindiy tilidagi gender xususiyatlari: nutq va matnda tenglik masalalari
6. Hindiy tilining iqtisodiy qadri: biznes va ish olamidagi ahamiyati
7. Hindiy tilining o'zgaruvchan fonetikasi: shahar va qishloq nutqidagi farqlar
8. Hindiy tilida so'z yasalishi tendensiyalari: yangi lug'at va neologizmlar
9. Hindiy tilining diasporadagi o'rni: chet eldagi hind jamoalarida til

	<p>saqlanishi</p> <ol style="list-style-type: none"> 10. Hindiy tilining kelajagi: texnologik ta'sir va global trendlar 11. Hindiy tilida media til: kino, televideniye va reklamalarning ta'siri 12. Hindiy tilini o'qitishdagi zamonaviy usullar: onlayn ta'lim va mobil ilovalar <p style="text-align: center;">III. Mustaqil ta'lim*</p> <p style="text-align: center;">III.1. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <p>“<i>Sharq tilshunosligi tarixi (hind)</i>” fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Hind-oriy tillaridan zamonaviy hindiy tiligacha bo'lgan evolyutsiya 2. Veda, Sanskrit, Prakrit, Apabh'rash va Khari Boli bosqichlari 3. Zamonaviy hindiy tilning shakllanishida Dehli maktabining roli 4. Sintaksis, semantika va stilistik vositalarning tahlili 5. Vali ijodiga doir nasriy asar tahlili. 6. Shevalar va adabiy til o'rtasidagi lingvistik farqlar 7. Til tarixida poetik struktura va leksik qatlarning evolyutsiyasi 8. Til vaziyati va sotsiolingvistika: Hindiston misolida nazariy va amaliy yondashuvlar 9. Mustaqillikdan avvalgi Hindistonda til vaziyati: ingliz mustamlakachiligi davridagi til siyosati 10. Hind tili shakllari va ularning amaliy yoritilishi: adabiy, og'zaki, yozma, rasmiy va norasmiy kontekstlarda qilish <p style="text-align: center;">* <i>Izoh: Mustaqil ta'lim mavzulari fan doirasida o'zgarishi mumkin.</i></p>
3.	<p><i>Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant-talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - Adabiy matnning fonetik va fonologik xususiyatlari - Hind tilining fonetik tizimi, uning tarixiy davriyligi (vedik sanskrit → o'rta hind-oriy → zamonaviy hindiy) asosida fonetik o'zgarishlar haqida tasavvurga ega bo'lish. - Matndagi fonemik kontrastlar. urg'u, intonatsiya va orfoepik me'yorlarni tahlil qilish. - Leksik-semantik va grammatik jihatlar - Hind tilidagi so'z yasalishi: o'zak, qo'shimchalar, yasovchi morfemalar va ularning semantik yukini aniqlash. - Matndagi leksik birliklarning grammatik funksiyasi, sintaktik roli va semantik o'zgaruvchanligini tahlil qilish. - Leksik qatlamlar: sanskrit, arab, fors, ingliz o'zlashmalari va ularning

	<p>matndagi stilistik ta'siri.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Sintaktik qurilmalar va matn strukturasi anglash - Matndagi murakkab gaplar, tematik bog'lanish, yaxlit murakkab jumla - Iboralar, maqollar, aforizmlar va ularning sintaktik shakllari, madaniy konnotatsiyasi. - Lug'at tarkibi va genetik asoslar - Hind tilining lug'at tarkibidagi qatlamlar: o'z so'zlar, o'zlashgan so'zlar, xalq shevalariga xos birliklar. - Etimologik tahlil: sanskrit, prakrit, paliy, urdu va ingliz tillaridan kirgan birliklarning kelib chiqishi va semantik evolyutsiyasi. - Morfologik tadqiq va so'z shakllari - Leksik birliklarning morfologik tahlili: sonlar, fe'llar, sifatlar va ularning grammatik kategoriyalari (zamon, rod, son, kishilik). - So'z turkumlari va ularning morfologik tizimi: fe'l zamonlari, ot yasalishi, sifat darajalari.- matn tilining fonetik asoslari, fonetik tizimning davriylik masalasi; matnda qo'llanilgan lug'at tarkibi, lug'at tarkibining genetik asoslari; so'zlarning ma'no xususiyatlari; leksik birliklarning morfologik tadqiqi; so'z yasalishi masalalari yuzasidan <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; - matnning sintaktik xususiyatlari; matnda qo'llanilgan iboralar, maqol va boshqalarga xos sintaktik qurilmalar; ijodkor uslubi masalasi, ijodkor uslubining o'ziga xosligi; adabiy til uslublari va ularning matndagi ko'rinishi; matn talabi bilan til uslublarning tanlanishini tushuna olish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	<p>V. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>VII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA</p>

AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar

1. D.Verma हिंदी भाषा का इतिहास [Hindiy tili tarixi], Delhi, 2015. 359 b.
2. Dr. K.Jeyn पाली भाषा साहित्य का इतिहास [Hindiy tili va adabiyoti tarixi], Varanasi, 1987. 154 b.
3. Dr. R. Velukar, Dr. D.Harichandan हिंदी साहित्य का इतिहास [Hindiy adabiyoti tarixi], Mumbai, 2010. 340 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023

1. Minu Kathuriya. Saral Hindi bhasha kaa vyaakaran tathaa rachnaa. (Hindiy tili darsligi) -Hindiston, Yangi Dehli, 2010

2. Bharat Singh, Keisuke Kato. Aao hindi sikhen. (Hindiy tilini o'rganamiz). Hindiston. Yangi Dehli, 2010

Scopusdan maqolalar

3. Nasibakhon Azizovna Abduganieva, Shamsieva Barnokhon Bahromkhodjaevna, Fatkhutdinova Iroda Atkhamovna, Makhamadtoirova Adiba Botir qizi, Salieva Mukhabbat Kushanovna. EDUCATIONAL ADMINISTRATION: THEORY AND PRACTICE. "Understanding Cultural Diversity as a means of Intercultural communication" The article is going to be published in the forthcoming volume Issue 2024 May edition. p-ISSN: 1300-4832 | Frequency 12 Issue

<https://kuev.net/index.php/kuev/article/view/5293>

Axborot manbalari:

8. www.gov.uz
9. www.lex.uz
10. www.ziyo.net
11. <https://ibratfarzandlari.uz>
12. www.repositori.kemdikbud.go.id
13. www.bipa.kemdikbud.go.id

7. Fanning o'quv dasturi, Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 2025 yil "25" iyun dagi 21 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

	Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 202 <u>5</u> yil " <u>28</u> " <u>iyun</u> dagi <u>11</u> - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ul: Nurmatov S.S. – TDSHU, Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi dotsenti, filologiya fanlari doktori
9.	Taqrizchilar: 1. Muhibova U.U. – Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi professori 2. Abduganiyeva N.A. – Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi dotsenti v.b., PhD

11/13